

Farg'ona davlat universiteti, Tarix fakulteti professori, pedagogika fanlari doktori, A.T. Egamberdiyev taqrizi ostida

**Bahromova Shohsanam Alijon qizi**  
Farg'ona Davlat universiteti Tarix fakulteti  
Tarix (yo'nalishlar va faoliyat turi bo'yicha)  
mutaxassisligi magistranti

---

**O'ZBEKISTON OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA OLIMA AYOLLARNING O'RNI, ULARGA YARATILGAN SHAROITLAR VA FAN SOHASIDAGI YUTUQLARI**

**ANNOTATSIYA:** Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasining oliy ta'lim muassasalari tizimida faoliyat yuritayotgan olim ayollarning mamlakat rivojiga ko'rsatayotgan ijobiy ta'siri, ularga davlat darajasida yaratilayotgan shart-sharoitlar, berilayotgan imtiyozlar, O'zbekiston Prezidentining har bir chiqishlarida ayol-qizlarga doir qaratayotgan e'tibori, olim ayollarning fan sohasidagi yutuqlari sabab ijtimoiy faolliklarining oshib borishi ko'rib chiqiladi. Shu qatorda O'zbekiston qonunchiligida gender tenglikni ta'minlash borasidagi izchil ishlarga ham e'tibor qaratilgan.

**KALIT SO'ZLAR:** Prezident Shavkat Mirziyoyev, "O'zbekiston – 2030" strategiyasi, ma'naviy-axloqiy asoslar, uzluksiz ta'lim tizimi, xotin-qizlar ijtimoiy faolligini oshirish, Gender tenglik va oila masalalari bo'yicha respublika komissiyasi, qo'shimcha davlat granti, "Bir million dasturchi" loyihasi, oliy ta'lim sohasi islohotlari.

**ABSTRACT:** In this article, the positive impact of women scientists working in the system of higher education institutions of the Republic of Uzbekistan on the development of the country, the conditions created for them at the state level, the privileges given to them, the speeches of the President of Uzbekistan focusing on women and girls attention, the increase of social activities of women scientists due to their achievements in the field of science is considered. Along with this, attention is paid to consistent work on ensuring gender equality in the legislation of Uzbekistan.

**KEYWORDS:** President Shavkat Mirziyoev, "Uzbekistan – 2030" strategy, spiritual and moral foundations, continuous education system, increasing social activity of women, Republican commission on gender equality and family issues, additional state grant, "One Million Programmers" project, higher education reforms.

**KIRISH:** Mamlakat kelajak avlodini vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularni mustaqil hayotga tayyorlash, Vatanning munosib farzandlari bo'lishi, zamonaviy ta'lim olishlari, jismonan sog'lom va ma'nun yetuk bo'lishlari uchun Yangi O'zbekistonda yetarli shart-sharoitlar yaratilmoqda. Yoshlarga oid davlat siyosati sohasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilishi bu soha davlat ijtimoiy hayotidagi asosiy yo'nalishlaridan biri ekanligidan dalolat beradi. O'tgan vaqt mobaynida yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, mamlakat istiqboli uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir, tashabbuskor, shijoatli, bilimli yoshlarni tarbiyalash borasida alohida tizim yaratildi. Mazkur sohani tubdan rivojlantirish maqsadida tizimli yondashuvlar yo'lga qo'yildi. Ma'naviy-ma'rifiy jarayonlarni tashkil etishda yaxlit tizim shakllantirildi. Yoshlarni ma'naviy tahdidlardan himoya qilish borasida idoralararo dasturlar asosida tashkiliy-amaliy va ilmiy tadqiqot ishlari ham muntazam olib borilmoqda.

"Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo'lib kamolga yetishi bilan bog'liq. Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o'z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar

yaratishdan iborat”<sup>1</sup>, – deya O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqida ta’kidlagan edi.

Mamlakatda hech kimdan kam bo‘lmagan yosh avlodni voyaga yetkazish, ularning intellektual va ma’naviy salohiyatini yuksaltirish uchun zarur sharoit yaratish, o‘g‘il-qizlarning Vatanga muhabbat va milliy qadriyatlarga hurmat ruhida kamol topishiga ko‘maklashish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib turibdi.

Inson madaniyati, ma’rifati uning aql-tafakkuri darajasi, ruhiy dunyoqarashini ko‘rsatadi. Unib o‘sib kelayotgan yoshlarning bilim, madaniyat, ma’rifat darajasi ularning ota-onalariga, shuningdek ustoz-muallimlarga va ta’lim olayotgan maskanlariga ko‘p jihatdan bog‘liqdir.

Yangi O‘zbekiston odamlari mehnatkash, olijanob xalq, birinchi navbatda, xotin-qizlar uchun erkin, obod va farovon hayot barpo etish – davlat va jamiyatning eng ustuvor vazifasi etib belgilangan. Jumladan, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida xotin-qizlarning siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy faolligini oshirish, onalik va bolalikni himoya qilish, gender tenglikni qaror toptirish, ayollarning huquq va manfaatlarini ta’minlash bo‘yicha keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda<sup>2</sup>.

**MATERIALLAR VA USLUBLAR:** O‘zbekiston taraqqiyotining yangi davrida belgilangan maqsadlarga erishish yo‘lida eng muhim qadriyat va hal qiluvchi kuch bo‘lgan bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash vazifasi olib borilayotgan ustuvor yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Mamlakatda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarda yoshlarning faol ishtirokini ta’minlash, yuksak manaviyatli, mustaqil va erkin fikrlaydigan, zamonaviy ilm-fan yutuqlarini puxta o‘zlashtirgan, har tomonlama sog‘lom va barkamol avlodni voyaga yetkazishga qaratilgan yoshlarga oid davlat siyosati izchil tarzda amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev 2020-yil 20-dekabr Oliy Majlis va xalqqa Murojaatida: “Najot-ta’limda, najot-tarbiyada, najot-bilimda. Chunki barcha ezgu maqsadlarga bilim va tarbiya tufayli erishiladi”– deya, ta’kidlagan edi. Shu bilan birga, so‘nggi yillarda mamlakat oliy o‘quv yurtlari soni 2,5 barobarga ortib 198 taga yetgani, oliy ta’lim bilan qamrab olish 9 foizdan 38 foizga oshgani ham ilova qilindi. 41 ta universitet akademik va moliyaviy taraflama mustaqillikka erishib, ularda transformatsiya bo‘limlari ham ochildi. Bu jarayonlarda rektorlar, professor-o‘qituvchilar ham faol ishtirok etishi, yangi, ilg‘or uslublarni joriy etishi zarur. 2023 - 2024-yilda ham oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun imtiyozli ta’lim kreditlari uchun ajratiladigan mablag‘lar ikki baravar ko‘paytirilib, jami 1,7 trillion so‘mga yetkazish, fan va innovatsiyalarga 1,8 trillion so‘m yo‘naltirilishi maqsad qilingan edi<sup>3</sup>.

Jamiyat ma’naviy-axloqiy asoslarini mustahkamlash, madaniyat sohasini rivojlantirish, ilmiy va ijodiy tashkilotlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash ham ustuvor vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Jamiyat ma’naviyatini yuksaltirish, ma’naviy sog‘lom muhitni yaratish, yosh avlod ta’lim-tarbiyasini rivojlantirishda ijtimoiy-gumanitar fanlar asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi. Bugun dunyoda sodir bo‘layotgan

---

<sup>1</sup> O‘zbekistonda yoshlar masalasi davlat siyosatining eng ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. 27.06.2023. <https://zarbdor.jizzax.uz/yangiliklar/1505-ozbekistonda-yoshlar-masalasi-davlat-siyosatining-eng-ustuvor-yonalishlaridan-biridir.html>

<sup>2</sup> Yangi O‘zbekistonda butun xalqimiz qatori xotin-qizlarimiz uchun ham munosib sharoitlarni yaratib berish – eng muhim vazifamiz bo‘lib qoladi. 07.03.2024. <https://cemc.uz/uz/yangi-ozbekistonda-butun-xalqimiz-qatori-xotin-qizlarimiz-uchun-ham-munosib-sharoitlarni>

<sup>3</sup> Insonga e’tibor va sifatli ta’lim. 20.12.2022. <https://www.mdis.uz/oz/news/insonga-etibor-va-sifatli-talim>

nizolar, beqarorliklarning kelib chiqish sabablari ham ma'naviy sohaga alohida e'tibor talab qilmoqda. Ijtimoiy-gumanitar fanlarning zamon talablariga mos ravishda rivojlanishi zarur<sup>4</sup>.

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan Yangi O'zbekiston strategiyasining adolatli ijtimoiy siyosat hamda ma'naviy taraqqiyot sohasida belgilab berilgan dolzarb vazifalari qatorida ijtimoiy-gumanitar fanlarga e'tibor qaratilganligi ham ushbu sohadagi muammoning dolzarbligidan dalolatidir<sup>5</sup>.

Yangi O'zbekiston strategiyasida "Uzluksiz ta'lim tizimida ijtimoiy fanlarni o'qitish tartibi va tamoyillari to'g'risida" qonun<sup>6</sup> ishlab chiqish va uni amaliyotga joriy etish ehtiyojining mavjudligi; "2022 - 2030-yillarda O'zbekiston Respublikasining uzluksiz ta'lim va tarbiya sohasini gumanitarlashtirish strategiyasi" yaratilishi<sup>7</sup> va amalga oshirilishining maqsadga muvofiqligi ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitishda ham yangicha yondashuvni<sup>8</sup> taqozo etadi.

Uzluksiz ta'lim tizimida ma'naviy tarbiya asoslarini kuchaytirish lozim va bunda o'sib kelayotgan avlodning yosh xususiyatlari va intilishlarini hisobga olish zarurligiga, milliy ma'naviyatni rivojlantirish, uni ayniqsa yoshlar hayotiga singdirishda ijtimoiy-gumanitar fanlar tizimining ahamiyati katta ekanligiga asosiy diqqat e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekiston Prezidentining "O'zingiz ko'rib turibsiz, bugun dunyo qanday shiddat bilan, keskin o'zgarib bormoqda. Jahon miqyosida bir tarixiy davr nihoyasiga yetmoqda. Ayni vaqtda oldindan tahlil qilib bo'lmaydigan jarayonlardan iborat o'ta murakkab yangi bir davr boshlanmoqda", – degan ta'kidi ijtimoiy-gumanitar fanlarning roli yanada oshib borishini asoslaydi<sup>9</sup>.

Jamiyatning ma'naviy yangilashdan ko'zlangan bosh maqsad – yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq erkinligi va farovonligiga erishish, komil insonni tarbiyalash, ijtimoiy hamkorlik va millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglik kabi ko'pdan ko'p masalalardan iborat<sup>10</sup>. Yuksak ma'naviy burchlar kecha yoki bugun o'ylab

---

<sup>4</sup> Jalilova D. Ta'lim jarayonlarining samaradorligini oshirish uchun innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati. "Sifatli ta'lim – taraqqiyot povdevori" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya to'plami. Toshkent,20.04.2023. B. 282-286.

<sup>5</sup> Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. Toshkent. O'zbekiston, 2021. B. 233.

<sup>6</sup> "Ta'lim to'g'risida"gi yangi qonun va inklyuziya: qanday bo'lishi kerak? 09.06.2020.  
<https://www.gazeta.uz/oz/2020/06/09/education-law/>

<sup>7</sup> Kajanova M. Umumta'lim maktablarida tashkil etiladigan tarix va ijtimoiy fanlar darslarida hamkorlik texnologiyasidan foydalanish va erishiladigan samaradorlik. Pedagogy of cooperation in improving the quality of education: international experience and modern approaches International scientific-practical conference, November 13, 2023. B. 214.

<sup>8</sup> "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli Prezident Farmoni. Toshkent. 08.10.2019.

<sup>9</sup> Jahon miqyosida bir tarixiy davr nihoyasiga yetmoqda – prezident dunyodagi vaziyatga to'xtaldi. 14.07.2023. <https://kun.uz/92295784>

<sup>10</sup> Murtazayeva R. O'zbekiston oliy ta'lim muassasalari ijtimoiy – gumanitar fanlar tizimidagi olimlarning yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishdagi o'rni. Материалы международной конференции "Перспективы инклюзивного роста и устойчивого развития Узбекистана: разработка стратегии в социальноэкономической сфере". 03.05.2024. B. 23.

topilgan emas. Ular insoniyatning ming yillik tarixi, ota-bobolarning necha-necha avlodlar tajribasi davomida yuzgaga kelgan. Ma'naviyatda insonning iymoni, e'tiqodi, axloqi, hayotning ma'nosini qanday tushunish, ichki dunyosi namoyon bo'ladi. Vatan, xalq oldidagi burchni anglash ham yuksak ma'naviyat belgisidir.

Ko'rsatilgan ta'lim tarbiyaviy faoliyatda xotin-qizlarning o'rni alohida ahamiyatga ega. "Oliygozlarda 14 mingdan ziyod opa-singillarimiz pedagogika va ilmiy tadqiqot yo'nalishida ish olib bormoqda"<sup>11</sup>, – deya Prezident Xalqaro xotin-qizlar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimidagi nutqida ta'kidladi.

Xotin-qizlar ijtimoiy faolligini oshirishda avvalo, milliy qonunchilik takomillashtirilib, ular uchun yanada keng imkoniyatlar yaratib berilmoqda. Buning tasdig'ini birgina misol, ya'ni, saylov kodeksida deputatlikka nomzodlarning kamida 40 foizi yoki har 5 nafaridan 2 nafari ayol kishi bo'lishi zarurligi mustahkamlab qo'yilganida<sup>12</sup> yaqqol ko'rish mumkin. Bugun ushbu ishlarning samarali natijasini deputat va senator ayollarning faoliyati asosida ko'rish mumkin. Mamlakat qonunchiligini mustahkamlash, qabul qilinayotgan qonunlarning adolatli va ta'sirchan bo'lishida ularning hissasi katta. Buning uchun xalq vakillari bo'lgan bu ayollarga doimiy ehtirom ko'rsatish muhimdir.

2024-yilga kelib xotin-qizlarning davlat boshqaruvidagi ulushi 2017-yildagi 27 foizdan 35 foizga yetgani ayniqsa e'tiborlidir<sup>13</sup>. Shu bilan birga, yuzlab oqila ayollar davlatning barcha sohalarida jonbozlik bilan faoliyat ko'rsatayotgani ham quvonarli jarayondir. Bu borada Gender tenglik va oila masalalari bo'yicha respublika komissiyasi samarali ish olib borayotganini ta'kidlash lozim. Shu bilan birga, joylarda xotin-qizlar muammolarini o'rganish va hal etishga qaratilgan ishlar yangi bosqichga ko'tarilmoqda. 2023-yilning o'zida "Ayollar daftari" bo'yicha 1 trillion 234 milliard so'm hisobidan qariyb 994 ming nafar xotin-qizning muammosi hal etilgani bu fikrni tasdiqlaydi<sup>14</sup>. Bu vazifalarni bajarishda Oila va xotin-qizlar qo'mitasi, Kasaba uyushmalari federatsiyasi hamda mahallalardagi xotin-qizlar faollarining ishtiroki kuchayib borayotgani ayniqsa muhimdir.

**NATIJARLAR VA MUHOKAMA:** Yangi O'zbekistonning bo'lg'usi onalari, kelajak tarbiyachilari bo'lmish qizlar kamolotiga, ularning ta'lim olishi, zamonaviy kasb-hunar va texnologiyalar, xorijiy tillarni egallashiga katta ahamiyat berilmoqda.

Hozirgi kunda oliygozlarda ta'lim olayotgan 1 million 300 ming nafarga yaqin talabaning yarmidan ko'pi, ya'ni, 653 ming nafarini qizlar tashkil etmoqda. Magistraturada o'qiyotgan yoshlar orasida qizlarning ulushi yanada ko'p, ya'ni, salkam 14 ming nafarini tashkil etmoqda. Bu – jami magistrantlarning qariyb 60 foizi degani<sup>15</sup>.

Yuqoridagi jadvalda buni yanada aniq ifodasini ko'rish mumkin<sup>16</sup>.

Ta'lim turi	Ta'lim shakli	To'lov shakli	Fucaroligi	Kurslar	Yo'zhi	Yashash joyi	Hududlar kesimida
Umumiy	Talabalar	Qituvchilar	OTMlar to'yxati	Jadvallar			
549841	48.91%	574252	51.09%	7536	38.93%	11336	60.07%
2291	60.50%	1496	39.50%				

<sup>15</sup> Faqat qizlar uchun – xotin-qizlarga ta'limda qanday imtiyozlar berilgan? 08.03.2024. <https://m.kun.uz/news/2024/03/08/faqat-qizlar-uchun-xotin-qizlarga-talimda-qanday-imtiyozlar-berilgan>

<sup>16</sup> Statistik ma'lumotlar <https://stat.edu.uz/students> saytidan olindi.

2023 - 2024-o'quv yilida ehtiyojmand oilalarga mansub 1 ming 914 nafar xotin-qiz oliygohlarga qo'shimcha davlat granti bo'yicha o'qishga qabul qilindi<sup>17</sup>. 181 ming 500 nafardan ortiq qizlarimiz uchun imtiyozli ta'lim kreditlari ajratildi<sup>18</sup>. Ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarning vakillari, yetim qolgan yoki ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan 2 mingdan ziyod talaba uchun 14 milliard 500 million so'm kontrakt puli mahalliy budjetlar hisobidan qoplab berildi. So'nggi yillarda davlat oliygohlarining magistratura bo'limida o'qiyotgan xotin-qizlarning kontrakt pullari budjetdan to'lanmoqda<sup>19</sup>.

Eng muhimi, qizlar o'rtasida zamonaviy bilim va kasb-hunarlariga qiziqish tobora ortib bormoqda. Masalan, "Bir million dasturchi" loyihasi doirasida ta'lim olgan yoshlarning 47 foizi, ya'ni qariyb yarmini qizlar tashkil etgan<sup>20</sup>.

Keyingi paytda Yangi O'zbekistonda ilm-fan va ta'lim, xususan, oliy ta'lim sohasi isloh etilib, jahon standartlariga moslashtirilayotgani sababli xotin-qizlar bu yo'nalishda ham katta natijalarga erishmoqdalar. Buning amaliy ifodasini so'nggi yetti yilda 5 ming 247 nafar ayollarimiz fan doktori (DSc) va o'z sohalari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olgani misolida ko'rish mumkin. Birgina 2023-yilning o'zida 147 nafar xotin-qiz fan doktori, 1 ming 238 nafari esa falsafa doktori ilmiy darajasiga erishganini ta'kidlash o'rindidir<sup>21</sup>.

Ilmiy ayollar millat tarbiyachisi sifatida ijtimoiy-gumanitar fanlarda innovatsiyalar yaratib, mamlakatimiz ilm faniga munosib hissa qo'shib kelmoqdalar. Ushbu sohadagi fan doktorlari, professorlar, taniqli olimalar ulkan yutuqlarga ega bo'lib, pedagogik va ilmiy-tadqiqot faoliyatlarini muvaffaqiyatli olib bormoqdalar.

Ilmiy darajalarga ega bo'lgan olimalar xotin-qizlar to'g'risidagi ma'lumotlar

2012-yilgacha		2012 - 2023-yillar davomida	
Nomzodlar soni	Fan doktorlar soni	Falsafa doktorlar (PhD soni) <sup>22</sup>	Fan doktorlar (DSc soni)
4793	504	4475	890 <sup>23</sup>

<sup>17</sup> Ehtiyojmand xotin-qizlar uchun qo'shimcha grant kvotasi tasdiqlandi. 29.07.2024. <https://kun.uz/news/2024/07/29/ehitoyjmand-xotin-qizlar-uchun-qoshimcha-grant-kvotasi-tasdiqlandi>

<sup>18</sup> O'zbekistonda xotin-qizlarni tadbirkorlikka jalb qilishga 15 trln so'm ajratiladi. 07.03.2024. <https://www.spot.uz/oz/2024/03/07/women-in-uzb/>

<sup>19</sup> Yangi O'zbekistonda butun xalqimiz qatori xotin-qizlarimiz uchun ham munosib sharoitlarni yaratib berish – eng muhim vazifamiz bo'lib qoladi. 07.03.2024. <https://president.uz/oz/lists/view/7076>

<sup>20</sup> "Vatanparvar" gazetasi, 10-son. 07.03.2024. <https://anyflip.com/dwalh/zkdi/basic>

<sup>21</sup> Yangi O'zbekistonda butun xalqimiz qatori xotin-qizlarimiz uchun ham munosib sharoitlarni yaratib berish – eng muhim vazifamiz bo'lib qoladi. 07.03.2024. <https://cemc.uz/uz/yangi-ozbekistonda-butun-xalqimiz-qatori-xotin-qizlarimiz-uchun-ham-munosib-sharoitlarni>

<sup>22</sup> Falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasi 2017-yildan boshlab joriy qilingan.

<sup>23</sup> Murtazayeva R. O'zbekiston oliy ta'lim muassasalari ijtimoiy – gumanitar fanlar tizimidagi olimalar ayollarning yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishdagi o'rni. Материалы международной конференции "перспективы инклюзивного роста и устойчивого развития узбекистана: разработка стратегии в социальноэкономической сфере". 03.05.2024.

**XULOSA;** Hozirgi kunda ilm-fan sohasida jami 5 mingga yaqin olim ayollar faoliyat ko'rsatmoqda. Oliyoghlarda esa 14 mingdan ziyod xotin-qizlar pedagogika va ilmiy tadqiqot yo'nalishida ish olib bormoqda.

Shuni ta'kidlash kerakki, qizlar, ayollarning intellektual salohiyati naqadar balandligi, agar tegishli sharoit va imkoniyat yaratib berilsa, ular har qanday yuksak marrani zabt etishga qodirligidan dalolat beradi.

Mustaqillik yillarida 17 nafar fidoyi ayollar "O'zbekiston Qahramoni" degan oliy unvonga sazovor bo'lgan bo'lsa, ularning 7 nafari fan, ta'lim va san'at sohasi vakillari ekanini alohida ta'kidlash lozim<sup>24</sup>. 11 nafar ayol fan sohasidagi eng yuksak darajaga, ya'ni akademik unvoniga sazovor bo'lgani, minglab xotin-qizlar davlatning faxriy unvon, orden va medallari bilan taqdirlanib kelayotgani el-yurtning ularga nisbatan yuksak ehtiromi ifodasidir.

Ayollarning huquq va manfaatlarini himoya qilish hamda gender tenglik masalasi barcha davlatlarda muhim masalalardan biri bo'lib kelgan. Zero, xotin-qizlarning jamiyat hayotining barcha sohalaridagi faol ishtiroki mamlakat barqarorligi va farovonligining kafolati hisoblanadi. Ayollarning, xususan, qiz bolaning o'qib, oliy ma'lumotli bo'lishi, kasb-hunar egallashi oila baxti, farzandlar kamoli uchun, shu asosda butun jamiyat ravnaqi uchun xizmat qiladi. Vatanni sevish, unga sadoqat bilan xizmat qilish, el-yurt uchun munosib farzandlar tarbiyalash – bu dunyodagi eng ulug' va sharafli ishdir. Mehribon va oqila, jonkuyar O'zbekiston ayol-qizlari bu borada hamisha fidoyilik ko'rsatib kelmoqdalar.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. O'zbekistonda yoshlar masalasi davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biridir. 27.06.2023. <https://zarbdor.jizzax.uz/yangiliklar/1505-ozbekistonda-yoshlar-masalasi-davlat-siyosatining-eng-ustuvor-yonalishlaridan-biridir.html>
2. Yangi O'zbekistonda butun xalqimiz qatori xotin-qizlarimiz uchun ham munosib sharoitlarni yaratib berish – eng muhim vazifamiz bo'lib qoladi. 07.03.2024. <https://cemc.uz/uz/yangi-ozbekistonda-butun-xalqimiz-qatori-xotin-qizlarimiz-uchun-ham-munosib-sharoitlarni>
3. Insonga e'tibor va sifatli ta'lim. 20.12.2022. <https://www.mdis.uz/oz/news/insonga-etibor-va-sifatli-talim>
4. Jalilova D. Ta'lim jarayonlarining samaradorligini oshirish uchun innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati. "Sifatli ta'lim – taraqqiyot povdevori" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya to'plami. Toshkent, 20.04.2023. B. 282-286.
5. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. Toshkent. O'zbekiston, 2021. B. 233.
6. "Ta'lim to'g'risida"gi yangi qonun va inklyuziya: qanday bo'lishi kerak? 09.06.2020. <https://www.gazeta.uz/2020/06/09/education-law/>
7. Kajanova M. Umumta'lim maktablarida tashkil etiladigan tarix va ijtimoiy fanlar darslarida hamkorlik texnologiyasidan foydalanish va erishiladigan samaradorlik. Pedagogy of cooperation in improving the quality of education: international experience and modern approaches International scientific-practical conference, November 13, 2023. B. 214.
8. "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli Prezident Farmoni. Toshkent. 08.10.2019.
9. Jahon miqyosida bir tarixiy davr nihoyasiga yetmoqda – prezident dunyodagi vaziyatga to'xtaldi. 14.07.2023. <https://kun.uz/92295784>
10. Murtazayeva R. O'zbekiston oliy ta'lim muassasalari ijtimoiy – gumanitar fanlar tizimidagi olim ayollarning yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishdagi o'rni. Материалы международной конференции "Перспективы инклюзивного роста и устойчивого развития Узбекистана: разработка стратегии в социальноэкономической сфере". 03.05.2024. B. 23.
11. O'zbekistonda saylov. 26.07.2024. <https://www.qalampir.uz/uz/news/deputatlikka-nomzodlarni-kursatishda-ayellarning-ulushi-kamida-40-foiz-buladi-104538>

<sup>24</sup> Yangi O'zbekistonda butun xalqimiz qatori xotin-qizlarimiz uchun ham munosib sharoitlarni yaratib berish – eng muhim vazifamiz bo'lib qoladi. 07.03.2024. <https://president.uz/oz/lists/view/7076>

12. O‘zbekistonda xotin-qizlarning davlat boshqaruvidagi ulushi 35 foizgacha ko‘tarildi. 19.07.2024. <https://kun.uz/news/2024/07/19/ozbekistonda-xotin-qizlarning-davlat-boshqaruvidagi-ulushi-35-foizgacha-kotarildi>
13. Faqat qizlar uchun – xotin-qizlarga ta‘limda qanday imtiyozlar berilgan? 08.03.2024. <https://m.kun.uz/news/2024/03/08/faqat-qizlar-uchun-xotin-qizlarga-talimda-qanday-imtiyozlar-berilgan>
14. Ehtiyojmand xotin-qizlar uchun qo‘shimcha grant kvotasi tasdiqlandi. 29.07.2024. <https://kun.uz/news/2024/07/29/ehtiyojmand-xotin-qizlar-uchun-qoshimcha-grant-kvotasi-tasdiqlandi>
15. O‘zbekistonda xotin-qizlarni tadbirkorlikka jalb qilishga 15 trln so‘m ajratiladi. 07.03.2024. <https://www.spot.uz/oz/2024/03/07/women-in-uzb/>
16. “Vatanparvar” gazetasi, 10-son. 07.03.2024. <https://anyflip.com/dwalh/zkdi/basic>
17. Yangi O‘zbekistonda butun xalqimiz qatori xotin-qizlarimiz uchun ham munosib sharoitlarni yaratib berish – eng muhim vazifamiz bo‘lib qoladi. 07.03.2024. <https://president.uz/oz/lists/view/7076>